International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service
Vol. 1 Issue 1 | pp. 407-409 **| ISSN:** XXXX-XXXX
Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

Integrating ESG Principles into Economic Policy and Corporate Governance

Berdikulova I. R.*[1]

1. Samarkand Institute of Economics and Service, PhD, Department of "Green Economy and International Business," Samarkand Institute of Economics and Service, Samarkand

* Correspondence: irodaberdikulova82@gmail.com

Abstract: The paper examines how ESG principles have moved from voluntary practice to mandatory regulation, using the European Union and Uzbekistan as cases. An ESG readiness index is calculated through regulatory mapping. Uzbekistan shows progress in taxonomy, reporting standards and green bonds, while financial-sector disclosure and carbon pricing remain undeveloped.

Keywords: ESG, sustainable finance, green taxonomy, corporate reporting, IFRS S1/S2.

1. Kirish

Barqaror rivojlanish modeliga o'tish davlat siyosati bilan birga korxonalar va moliya institutlarining qaror qabul qilish mantiqini ham o'zgartirmoqda. Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini investitsiya va boshqaruv qarorlariga integratsiyalash so'nggi o'n yillikda ixtiyoriy korporativ mas'uliyatdan davlat tomonidan tartibga solinadigan sohaga aylandi.

Yevropa Ittifoqi (YeI) barqaror moliyaning yaxlit huquqiy arxitekturasini yaratdi: barqaror faoliyat taksonomiyasi [1], moliyaviy sektorda oshkoralik reglamenti (SFDR) [2] va korporativ barqarorlik hisoboti direktivasi (CSRD) [3]. O'zbekistonda milliy yashil taksonomiya [4], yashil o'tishda milliy shaffoflik tizimi [5] va MHXS barqarorlik standartlarini joriy etish [6] bo'yicha hujjatlar qabul qilindi. Tadqiqot maqsadi – O'zbekistonda ESG integratsiyasi darajasini YeI tajribasi bilan qiyoslab baholash va uni chuqurlashtirish yo'nalishlarini aniqlash.

2. Adabiyotlar sharhi

S. Gillan, A. Koch va L. Starks ESG ko'rsatkichlari firma qiymati va xatarlar darajasi bilan bog'liq bo'lsa-da, sabab-oqibat aloqalari hali to'liq isbotlanmaganini qayd etadi [7]. L. Pástor, R. Stambaugh va L. Taylor muvozanat modeli asosida yashil aktivlarning kutilayotgan daromadliligi pastroq bo'lishi, ammo ular iqlim xatarlaridan himoyalash vazifasini bajarishini ko'rsatgan [8]. Ayni paytda ESG baholashning metodologik muammolari mavjud: F. Berg, J. Kölbel va R. Rigobon yetakchi reyting agentliklari ESG baholari o'rtasidagi korrelyatsiya 0,38–0,71 oralig'ida ekanini, tafovutning asosiy sababi o'lchash usullaridagi farq ekanini aniqlagan [9]. Bu yagona standartlar va davlat tomonidan tartibga solish zaruratini asoslaydi.

Citation: R., B. I. Integrating ESG Principles into Economic Policy and Corporate Governance. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 407-409.

Received: 24th Aug 2026
Revised: 26th Sep 2026
Accepted: 28th Oct 2026
Published: 22nd Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tartibga solish xaritalash (regulatory mapping) usuli qo‘llanildi. ESG ekotizimi oltita komponentga ajratilib, har biri amaldagi me’yoriy hujjatlar asosida baholandi: 0 – mexanizm mavjud emas; 1 – qisman yoki pilot tarzda joriy etilgan; 2 – to‘liq va majburiy amal qiladi. ESG tayyorgarlik indeksi quyidagicha hisoblandi:

$$I = \Sigma s_i / (2n) \times 100\%, \quad (1)$$

bu yerda s_i – i-komponent bahosi; n – komponentlar soni (n = 6). Baholash muallif tomonidan ekspert yondashuv asosida amalga oshirilgan.

4. Tahlil va natijalar

1-jadval. YeI va O‘zbekistonda ESG ekotizimi komponentlarining baholanishi

Komponent	YeI (asosiy hujjat)	Ball	O‘zbekiston (hujjat, holat)	Ball
Yashil taksonomiya	Reglament (EU) 2020/852	2	VMQ-561 (2023), pilot asosida	1
Moliyaviy sektor oshkoraligi	Reglament (EU) 2019/2088	2	Maxsus talab yo‘q	0
Korporativ barqarorlik hisoboti	Direktiva (EU) 2022/2464	2	VMQ-221 (2026), davlat korxonalaridan boshlab	1
Hisobot standartlari	ESRS, (EU) 2023/2772	2	IFRS S1/S2, bosqichma-bosqich	1
Yashil obligatsiyalar	Reglament (EU) 2023/2631	2	Suveren yashil obligatsiyalar (2023), milliy standart yo‘q	1
Uglerod narxi va MRV	EU ETS, CBAM	2	PQ-213 (2024) MRV tizimi; uglerod narxi yo‘q	1
ESG tayyorgarlik indeksi, %		**100**		**41,7**

Manba: [1–6; 10] asosida muallif baholashi.

YeIda barcha komponentlar majburiy huquqiy asosga ega (I = 100%). Biroq YeI tajribasi tartibga solish yukining ortib ketishi xavfini ham ko‘rsatdi: 2025-yilda korporativ hisobot talablarini qo‘llash muddatlari kechiktirildi [10]. Bu rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ESG talablarini korxonalar salohiyatiga mos ravishda bosqichma-bosqich joriy etish zarurligini anglatadi.

O‘zbekistonda indeks 41,7 foizni tashkil etdi. Milliy taksonomiya yashil obligatsiya va kreditlar orqali moliyalashtiriladigan loyihalarni hamda davlat qo‘llab-quvvatlovidan foydalanuvchi korxonalarning investitsiya xarajatlarini tasniflashda qo‘llanilmoqda [4]. 2026-yilgi qarorga ko‘ra, transformatsiya qilinayotgan davlat korxonalari ESG hisobotini joriy etishi va barqarorlik hisobotlarini e’lon qilishi belgilandi [6]. 2023-yilda joylashtirilgan 4,25 trln so‘mlik suveren yashil yevroobligatsiyalar yashil instrumentlarga talab mavjudligini tasdiqladi [11].

Asosiy bo‘shliqlar moliyaviy sektor oshkoraligi va uglerod narxida kuzatiladi. Banklar va investitsiya fondlari uchun portfeldagi yashil aktivlar ulushi va iqlim xatarlarini oshkor etish talabi yo‘qligi taksonomiyaning kapital oqimlariga ta’sirini cheklaydi. 2024-yilda joriy etilgan MRV tizimi [5] esa uglerod narxini kiritish uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

5. Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda ESG integratsiyasining institutsional asoslari yaratilgan, biroq ular hali bozor mexanizmlari bilan to‘liq bog‘lanmagan. Quyidagilar taklif etiladi: banklar uchun yashil aktivlar ulushi va iqlim xatarlarini oshkor etish talablarini bosqichma-bosqich joriy etish; milliy taksonomiyani pilot rejimidan davlat fondlari va banklar uchun majburiy qo‘llashga o‘tkazish hamda uni YeI taksonomiyasi bilan muvofiqlashtirish; ESG hisobotini davlat korxonalaridan listingdagi va yirik xususiy

kompaniyalarga kengaytirish, kichik biznes uchun soddalashtirilgan shakllarni ishlab chiqish; xalqaro tamoyillarga mos milliy yashil obligatsiyalar standartini qabul qilish; MRV ma'lumotlari asosida energetika va og'ir sanoatda uglerod narxining pilot mexanizmini sinovdan o'tkazish; oliy ta'lim muassasalarida ESG tahlili va barqarorlik hisoboti bo'yicha kadrlar tayyorlashni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Regulation (EU) 2020/852 of 18 June 2020 on the establishment of a framework to facilitate sustainable investment.

[2] Regulation (EU) 2019/2088 of 27 November 2019 on sustainability-related disclosures in the financial services sector.

[3] Directive (EU) 2022/2464 of 14 December 2022 as regards corporate sustainability reporting.

[4] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrdagi 561-son qarori (milliy yashil taksonomiya).

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son qarori.

[6] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son qarori.

[7] Gillan S.L., Koch A., Starks L.T. Firms and social responsibility: A review of ESG and CSR research in corporate finance // Journal of Corporate Finance. – 2021. – Vol. 66. – 101889.

[8] Pástor Ľ., Stambaugh R.F., Taylor L.A. Sustainable investing in equilibrium // Journal of Financial Economics. – 2021. – Vol. 142(2). – P. 550–571.

[9] Berg F., Kölbel J.F., Rigobon R. Aggregate Confusion: The Divergence of ESG Ratings // Review of Finance. – 2022. – Vol. 26(6). – P. 1315–1344.

[10] Directive (EU) 2025/794 of 14 April 2025 ("stop-the-clock").

[11] UNDP Uzbekistan. Uzbekistan issues first ever green sovereign Eurobonds worth 4.25 trillion UZS. – 09.10.2023.